

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI  
O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI  
O‘ZBEK ADABIYOTI TARIXI VA FOLKLOR KAFEDRASI**

**“ARUZ VA MUMTOZ POETIKAGA KIRISH” FANIDAN  
O‘QITUVCHI SILLABUSI**

**Tuzuvchi:** filologiya fanlar doktori Dilnavoz Yusupova

<b>Fan/modul kodi</b> 300.6AMP5T		<b>O‘quv yili</b> 2020-2021	<b>Semestr</b> 1	<b>ECTS - Kreditlar</b> 5	
<b>1 ECTS – Kreditlar soni</b> 5		<b>Ta’lim tili</b> O‘zbek		<b>Haftadagi dars soatlari</b> 4	
<b>Fanning darajasi</b> Yuqori darajadagi fan – 300		<b>Fan/modul turi</b> Majburiy		<b>Modul rahbari</b> Yusupova D. dilnavoz@navoiy-uni.uz.	
<b>Universitet kampusi</b> 1-blok		<b>Hafta kunlari</b> Dushanba, chorshanba, juma		<b>Vaqt</b> Kunning birinchi yarmida	
	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta’lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>	
	<i>Aruz va mumtoz poetikaga kirish</i>	<i>1-semestr 60</i>	<i>1-semestr 60</i>	<i>1-semestr 120</i>	
<b>1-semestr</b>	Modul 1 Aruz vazni qoidalari	39	19	58	
	Modul 2 Mumtoz poetikaga kirish	21	41	62	
	<b>JAMI</b>	60	60	120	

**Fanning tavsifi:**

aruz vazni va uning qoidalari, aruzda yozilgan asarlarning o‘lchovini aniqlash yo‘llari, aruz tizimining o‘zbek mumtoz adabiyotidagi o‘rni, mumtoz janrlar va ularning badiiyati, ilmi badi’ va ilmi qofiya bo‘yicha aniq va muhim ma’lumotlarni talabaga etkazishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun mazkur fan talabalarning bilimlarini mustahkamlash, badiiy did va adabiy idrokini o‘stirish hamda ularda tadqiqotchilik malakasini shakllantirish uchun zamin hozirlaydi.

**Fan mohiyati:**

amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha kafedra pedagog xodimlari tomonidan ko‘rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy mavzular bo‘yicha olgan bilim va ko‘nikmalarini amaliy mashqlar, taqdimotlar, keyslar orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha talabalar bilimlarini o‘zlashtirish va mustahkamlash, tarqatma materiallar asosida bilimlarni o‘zlashtirish, ilmiy maqolalar va tezislardan foydalanish, mavzular bo‘yicha taqdimotlar va kichik ko‘lamdagi loyiha ishlarini tayyorlashlari lozim.

**Fanning natijasi:**

fanni o‘zlashtirish natijasida talaba aruz vaznining o‘ziga xos xususiyatlari, aruz tarixi haqida, aruz vaznining nazariy asoslari, qisqa, cho‘ziq va o‘ta cho‘ziq hijolarning bir-biridan farqi, taqti’ va uning qoidalari, rukn va bahr tushunchalari, musta’mal bahrlar; mumtoz she’r shakllari, badiiy san’atlar, mumtoz she’r nav’lari, qofiya ilmi haqida bilimga ega bo‘liadi.

**Baholash mezonlari:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2018-yil 26-sentabrdagi 3069-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risidagi” nizomga muvofiq ishlab chiqildi. Baholash ON, YN dan iborat.

Turi	Foizi	Saralash turi	Shakli
Og‘zaki, yozma imtihon	50%	ON, YN	Savol-javob, loyiha ishi
Mustaqil ta’lim	50%		Taqdimot

**Ta’lim berish va o‘qitish metodlari:**

“Aruz va mumtoz poetikaga kirish” fanini o‘zlashtirishda o‘qitishning ilg‘or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi axborot-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Dasturda ko‘rsatilgan mavzular ma’ruza, amaliy va seminar mashg‘ulot shaklida olib boriladi, shuningdek, fanning dolzarb masalalari talabalarga mustaqil ta’lim sifatida o‘zlashtirish uchun beriladi. Fanni o‘zlashtirishda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari, tarqatma materiallar, audio-video materiallar hamda texnik vositalardan foydalaniladi. Mashg‘ulotlar rivojlantiruvchi, muammoli, hamkorlik, o‘yin texnologiyalari va qator metodlari orqali tashkil etiladi.

- Aqliy hujum
- Muammoli vaziyat
- BBB
- Keys-stadi kabilar.

**Kalit so‘zlar:**

poetika, aruz vazni, qofiya, raviy, aruz doiralari, bahr, rukn, hijo, lafziy va ma’naviy san’atlar

**Mavzular ro‘yxati:****1. “Aruz va mumtoz poetikaga kirish” fani bo‘yicha ma’ruza mashg‘ulotlar:***1 – semestr*

№	Mavzular	Dars soatlari hajmi
	<b>Modul 1</b> <b>Aruz vazni qoidalari</b>	
1.	Aruz tizimi haqida umumiy ma’lumot. Aruzning nazariy asoslari	2
2.	Aruzda rukn va bahr tushunchasi haqida ma’lumot Aruzda rukn va bahr tushunchasi haqida ma’lumot	1
3.	Musta’mal bahrlar. Bir xil asliy ruknlardan tarkib topgan bahrlar. Ramal bahri	1
4.	Hazaj bahri vaznlari. Ruboiy vaznlari. Axrab va axram shajarasi	2
5.	Rajaz va mutaqorib bahrlari	2
6.	Turli asliy ruknlar va ularning tarmoqlaridan tarkib topgan bahrlar. Sari’ va xafif bahrlari	2
7.	Mujtass va muzori’ bahrlari	1
<b>Modul 2</b> <b>Mumtoz poetikaga kirish</b>		
8.	Mumtoz poetika haqida umumiy ma’lumot. Balog‘at ilmi	1
9.	Mumtoz adabiyotda adabiy turlar va she’r nav’lari	2
10.	Bandli she’r shakllari. Bayt asosidagi bandli she’rlar	2
11.	Ilmi badi’ yoki badiiy san’atlar talqini	2
12.	Ilmi qofiya haqida ma’lumot	2

**2. “Aruz va mumtoz poetikaga kirish” fani bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar:***1 – semestr*

№	Mavzular	Dars soatlari hajmi
	Modul 1 Aruz vazni qoidalari	20 soat
1.	Aruzning asosiy birliklari. Bo‘g‘in va hijo tushunchalari.	1
2.	Vasl, imola va taslim hodisalari	1
3.	Ramal bahri va uning musamman vaznlari	2
4.	Hazaj bahri va uning musamman vaznlari	2
5.	Ruboiy vaznlari. Axrab shajarasi	2
6.	Rajaz bahri vaznlari	2
7.	Mutadorik bahri vaznlari.	1
8.	Komil bahri vaznlari	1
9.	Sari’ bahri vaznlari.	1
10.	Xafif bahri vaznlari	1
11.	Muzori’ bahri vaznlari.	1
12.	Munsarih bahri vaznlari	1
<b>Modul 2</b> <i>Mumtoz poetikaga kirish</i>		
13.	G‘azal va uning turlari.	1
14.	Qasida, mustazod	1
15.	Musammatlarning shakliy xususiyatlari. Musammatlarning shakliy xususiyatlari.	1
16.	Tazmin musammatlar.	1

**3. “Aruz va mumtoz poetikaga kirish” fani bo‘yicha seminar mashg‘ulotlar:**

№	Mavzular	Dars soatlari hajmi
	Modul 1 Aruz vazni qoidalari	20 soat
1.	Asliy va tarmoq ruknlar	1
2.	Bahrlar va ularning tuzilishi	1
3.	Ramal bahrining musaddas vaznlari	2
4.	Hazaj bahrining musaddas vaznlari	2
5.	Ruboiy vaznining axram shajarasi	2
6.	Mutaqorib bahri vaznlari	2
7.	Mujtass bahri vaznlari	2
8.	Mumtoz aruzshunoslik asoslari	2
<b>Modul 2</b> <i>Mumtoz poetikaga kirish</i>		
9.	Tarji’band va tarkibband janrlari	1
10.	Masnaviy va soqiynoma janrlari.	1
11.	Badiiy san’atlar tasnifi. Lafziy san’atlar.	1
12.	Ma’naviy va mushtarak san’atlar.	1
13.	Mumtoz adabiyotda qofiya turlari	1
14.	Radif va hojib.	1

**Fan bo‘yicha savollar to‘plami:**

1. Baytning vaznini aniqlang.  
*Fig‘onki, yor vafo ahlig‘a sitam qiladur,  
Niyozu ajz gunohig‘a muttahaq qiladur.*

2. Quyidagi she'riy parchaning janrini aniqlang.  
*Vah, qachong'a tegru ishqing kojidin  
 Ko'zuma har lahza o't chaqilg'usi.  
 Basdurur ko'nglumda ishqing, yoqma o't,  
 Kim harorat ul ham o'tcha qilg'usi.*
3. Musammatlar haqida ma'lumot bering.
4. Muammo janrmi yoki badiiy san'atmi? Nima uchun?
5. Baytda qo'llanilgan vazn va she'riy san'atlarni aniqlang.  
*Latofat gulshanida gul kibi sen sabzi xurram qol,  
 Men archi dahr bog'idin xazon yafrog'idek bordim*
6. Baytning vaznini aniqlang.  
*Dahrdin mehru vafo qilma havas,  
 Elidin g'ayri jafu qilma havas.*
7. "Qisasi Rabg'uziy" dan olingan quyidagi she'riy parchaning janrini aniqlang  
*Ilhoq umul, tuzun qiliq  
 Bilig arig' haddin chiqo  
 Ko'kdan adizrak himmati.  
 Mo'risi bekklik dinida  
 So'rar ani yulnub yaqo  
 Qizg'anchi uqbo milkati.*
8. Qaysi mumtoz janrlar maxsus vaznlarda yoziladi?
9. G'azal-qit'a bilan qit'a orasidagi farqlarni ko'rsating.
10. Baytda qo'llanilgan vazn va she'riy san'atlarni aniqlang.  
*Xazon faslida ul oy jism-u ruxsorimni ko'rgan chog'  
 Degaykim, bir qurug' shox uzra qolmish bir sarig' yafrog'*
11. Baytning vaznini aniqlang.  
*Har kun aqshomg'acha hajringda menga zorlig' ish,  
 Kecha tong otqucha anduh ila bedorlig' ish.*
12. Quyidagi she'riy parchaning janrini aniqlang.  
*Shahg'a muqarrab o'lsa birav barcha xaylidin,  
 El barcha dushman o'lsa aning birla vajhi bor.  
 Kim xaylu shoh oshiqu ma'shuq erur yaqin,  
 Gulchehraeki, oshiq ancha bo'lsa beshumor.*
13. Iyhom san'atiga izoh bering.
14. "Funun ul-balog'a" da musammatlarning qaysi turlari keltirilgan?
15. Baytda qo'llanilgan vazn va she'riy san'atlarni aniqlang.  
*Sakkokiy yig'lab, ko'z yoshin yoz yomg'iridek yog'dirur,  
 Yetkurgil oni, ey sabo, yuzi guli xandonima.*
16. Baytning vaznini aniqlang.  
*Orazing erur jannat, chashm huru g'ilmoning,  
 Qomating erur to'biy, xatt sabz rayhoning*
17. "Qisasi Rabg'uziy" dan olingan quyidagi she'riy parchaning janrini aniqlang  
*Ne bo'ldi ko'rarmen sizlarni uru  
 To'nguztek yig'ilib ashbahda qoni.  
 Qilich birla qirg'am qamug'ni bu kun,  
 Tirik qo'ymag'am bir ini og'ani.  
 Boshimiz yo'q erdi, Muhammadni Haq  
 Ato qildi, mundog' arig'er qani!*
18. Tasmit musammatlar uchun qaysi janr asos bo'ladi?
19. Husni ta'lil va tamsil san'atlari orasidagi farqni misollar asosida tushuntiring.
20. Baytda qo'llanilgan vazn va she'riy san'atlarni aniqlang.  
*Meni o'tturdi jafu-u javr birla ul quyosh,*

*Emdi turguzmak uchun mehr-u vafosi qoldimu?*

21. Baytning vaznini aniqlang.

*Sarvning soyasida bodai gulfom kerak,  
Bo'ldi chun ikkisi, bir sarvi gulandom kerak.*

22. Quyidagi she'riy parchaning janrini aniqlang.

*Va'da aylab vasl, jismi notavonim o'rtama,  
Kelmagungdur, intizor o'tig'a jonim o'rtama.  
Ishq o'tining o'rtari bastur, yana jonim aro  
Dog'i hijron har dam, ey nomehribonim, o'rtama.*

23. "Funun ul-balog'a" asarining tarkibiy qismlarini sanang.

24. O'zbek mumtoz adabiyotidagi qaysi janrlarning paydo bo'lishi bevosita Rabg'uziy asari bilan bog'liq?

25. Baytda qo'llanilgan vazn va she'riy san'atlarni aniqlang.

*Bahor-u bog' sayrin ne qilaykim, dilsitonimning  
Yuzi gul, zulfi sunbul, qomati sarvi xiromonimdur*

26. Baytning vaznini aniqlang.

*Bu kechar jahonda soqiy, chu emas vafo nishoni,  
Bari aysh birla kechsa kerak ushbu umri foniy*

27. "Qisasi Rabg'uziy" dan olingan quyidagi she'riy parchaning janrini aniqlang

*Asli mo'g'ul erkan ko'nub*

*Islom uchun tutti yaqo*

*Bo'ldi Rasulning ummati.*

*Toat qilur tun-kunduzun*

*Olnur saboq Mus'haf baqo*

*Qur'on o'qumoq odati.*

28. O'zbek mumtoz adabiyotida mutassa' janri mavjudmi?

29. Tuyuq va ruboiy orasidagi uch asosiy farqni ko'rsating.

30. Baytda qo'llanilgan vazn va she'riy san'atlarni aniqlang.

*Zohido, ishq-u muhabbat ahlini ma'zur tut,  
Yor ko'yida na bo'ldi Shayx San'on oqibat*

31. Baytning vaznini aniqlang.

*Nafis kiyguluk o'lsa yalang tanimg'a havas,  
Hasir naqshi hasiriy libos o'rnig'a bas.*

32. Quyidagi she'riy parchaning janrini aniqlang.

*Ro'ziy anga barcha kom bo'lsun, yo Rab,  
Iqboli mayi mudom bo'lsun, yo Rab,  
Ham ishrati bardavom bo'lsun, yo Rab,  
Ham davlati mustadom bo'lsun, yo Rab.*

33. Iyhom va tajnis san'atlarining mushtarak va farqli jihatlariga to'xtaling.

34. Masnaviy necha xil bo'ladi?

35. Baytda qo'llanilgan vazn va she'riy san'atlarni aniqlang.

*Senki shohi husnsen, har kun qilib qulluq senga  
Sajda aylarga qo'yar tufroqqa ruxsor oftob.*

36. Baytning vaznini aniqlang.

*G'urbatta ul oy hajri meni pir qilibtur,  
Hijron bila g'urbat manga ta'sir qilibtur*

37. Quyidagi she'riy parchaning janrini aniqlang.

*Otam bu ostonning xokbezi,  
Onam ham bu saro bo'ston kanizi.  
Manga, gar xud bo'lay bulbul, vagar zog',  
Kim ushbu dargah o'lg'ay gulshanu bog'.  
Vale umre bu gulshandin havodis*

*Qilib jonimga hijron ranji hodis.*

38. Tasdis musammatlar uchun qaysi janr asos bo'ladi?

39. Muammo va lug'z janrlari orasida qanday farq bor?

40. Baytda qo'llanilgan vazn va she'riy san'atlarni aniqlang.

*Yerga kirsam koshki, chun etmas ul oyg'a ilik,*

*Mushkil ahvole tushubdur: er qatiq-u ko'k yiroq*

41. Baytning vaznini aniqlang.

*O'zgalor birla borib mayli sharob aylamagil,*

*Jigarimni g'am o'ti birla kabob aylamagil.*

42. Quyidagi she'riy parchaning janrini aniqlang.

*Ranj ko'rmay kishi toparmu farog'?!*

*Ko'ngli o'rtanmayin yonarmu charog'?!*

*Tuxm erga kirib chechak bo'ldi,*

*Qurt jondin kechib ipak bo'ldi.*

*Lola tuxmicha g'ayrating yo'qmu?!*

*Pilla qurticha himmating yo'qmu?!*

43. Tardi aks va uning turlari haqida ma'lumot bering.

44. Tarkibband va tarji'band janrlarining o'xshash va farqli jihatlariga to'xtaling.

45. Baytda qo'llanilgan vazn va she'riy san'atlarni aniqlang.

*Visoling orzusi shiddati hijronni yiqmoqda,*

*Bu ikki pahlavon maydoni dil uzra kuroshibdur.*

46. Baytning vaznini aniqlang.

*Yor Navoiyni tilab, ey ko'ngul,*

*Yo seni o'lturgusidur, yo meni.*

47. Quyidagi she'riy parchaning janrini aniqlang.

*Belu og'zidin, dedilarkim, degil afsonae,*

*Boshladim filholkim: «Bir bor edi, bir yo'q edi».*

48. Tajnis va uning turlari haqida ma'lumot bering.

49. G'azali musajja' nima?

50. Baytda qo'llanilgan vazn va she'riy san'atlarni aniqlang.

*O'tdi xo'blar oy kibi yo'qtur aroda ul quyosh,*

*Vahki, ul badmehnri ko'rman o'todur mohlar.*

51. Baytning vaznini aniqlang.

*Garchi gunahning had-u poyoni yo'q,*

*Aylamasang afv ham imkoni yo'q*

52. Quyidagi she'riy parchaning janrini aniqlang.

*Chu dushman o'ldi qadimiy, ziyonidin hazar et,*

*Agarchi nutqi ravonbaxshi jong'a rohat erur.*

*Suv birla o't aro ziddiyat o'ldi chun azaliy,*

*Agar hayot suyidurki, o'tg'a ofat erur.*

53. Navoiy devonida musammatlarning qaysi turlari uchramaydi?

54. Muammo janrmi yoki badiiy san'atmi? Nima uchun?

55. Baytda qo'llanilgan vazn va she'riy san'atlarni aniqlang.

*Elga va'da gar vafo qilding, jafo men xastag'a,*

*Elni bilman, qil menga har va'dakim qilding vafo.*

56. Baytning vaznini aniqlang.

*Qon bo'ldi ko'ngul firoqi birla,*

*Kuydi jonim ishtiyoqi birla*

57. Rabg'uziy qalamiga mansub quyidagi she'riy parchaning janrini aniqlang

*Mo'risi bekklik dinida*

*So'rar ani yulnub yaqo*

*Qizg'anchi uqbo milkati.*

*Ilhoq umul, tuzun qiliq*

*Bilig arig' haddin chiqo*

*Ko'kdan adizrak himmati.*

58. Qaysi mumtoz janrlar maxsus vaznlarda yoziladi?

59. G'azali mulamma' nima?

60. Baytda qo'llanilgan vazn va she'riy san'atlarni aniqlang.

*Sevgi shunday navbahorki, u tikandan gul qilur,*

*Toshga jon-u til bag'ishlab, zog'ni ham bulbul qilur.*

61. Baytning vaznini aniqlang.

*Dema yilon, ajdar erur ganj sanj,*

*Muzmar aning javfida yuz turfa ganj.*

62. Quyidagi she'riy parchaning janrini aniqlang.

*To'nni zarbaft aylabon xiffatdin uchqon har taraf,*

*Yo'q ajab, gar bor esa dunyo mato'i kom anga.*

*Ul chibinkim, ko'zga oltun yanglig' ishnor xil'ati,*

*Ko'pragi bilkim, najosat uzradur orom anga.*

63. Tamsil san'atiga izoh bering.

64. "Funun ul-balog'a" da keltirilgan she'r nav'larini saanang?

65. Baytda qo'llanilgan vazn va she'riy san'atlarni aniqlang.

*Izzat ila ne'mat avjida bo'lur oliymaqom,*

*Har kim o'lsa kaj, nechukkim "ayn" ila "nun", ey ko'ngul.*

66. Baytning vaznini aniqlang.

*Ko'nglumni chu ul pari olibtur,*

*Devona bo'lurg'a ne qolibtur*

67. Quyidagi she'riy parchaning janrini aniqlang

*Ne bo'ldi ko'rarmen sizlarni uru*

*To'nguztek yig'ilib ashbahda qoni.*

*Qilich birla qirg'am qamug'ni bu kun,*

*Tirik qo'ymag'am bir ini og'ani.*

*Boshimiz yo'q erdi, Muhammadni Haq*

*Ato qildi, mundog' arig' er qani!*

68. Tarsi' qanday san'at?

69. Husni ta'lil va tamsil san'atlari orasidagi farqni misollar asosida tushuntiring.

70. Baytda qo'llanilgan vazn va she'riy san'atlarni aniqlang.

*Meni o'lturdi jafu-u javr birla ul quyosh,*

*Emdi turguzmak uchun mehr-u vafosi qoldimu?*

71. Baytning vaznini aniqlang.

*Ul qilib jilva bu bo'lub shaydo,*

*Ishq bo'ldi jahon aro paydo.*

72. Tazmin va tatabbu'ning qanday farqi bor?

73. O'zbek mumtoz adabiyotidagi qaysi janrlarning paydo bo'lishi bevosita Rabg'uziy asari bilan bog'liq?

74. Baytda qo'llanilgan vazn va she'riy san'atlarni aniqlang.

*Bahor-u bog' sayrin ne qilaykim, dilsitonimning*

*Yuzi gul, zulfi sunbul, qomati sarvi xiromonimdur*

75. Baytning vaznini aniqlang.

*Yuzung borida mehr ila mohtob kerakmas,*

*Qoshing qoshida toq ila mehrob kerakmas*

76. "Funun ul-balog'a" asarining tarkibiy qismlarini sanang.

77. Tuyuq va ruboiy orasidagi uch asosiy farqni ko'rsating.

78. Baytda qo'llanilgan vazn va she'riy san'atlarni aniqlang.

*Zohido, ishq-u muhabbat ahlini ma'zur tut,*

*Yor ko'yida na bo'ldi Shayx San'on oqibat.*

79. Baytning vaznini aniqlang.

*Jonim chiqadur dard ila, jononima ayting,*

*Men xasta gado holini sultonima ayting*

80. Quyidagi she'riy parchaning janrini aniqlang.

*Navoiy, tiling asrag'il zinhor,*

*Desangkim, emay dahr ishidin fusus.*

*Nazar hilki, o'q og'zi tilsiz uchun*

*Qilur tojvarlar bila dastbo's.*

81. Iqtibos va aqd san'atlarining mushtarak va farqli jihatlariga to'xtaling.

82. Masnaviy necha xil bo'ladi?

83. Baytda qo'llanilgan vazn va she'riy san'atlarni aniqlang.

*Senki shohi husnsen, har kun qilib qulluq senga*

*Sajda aylarga qo'yar tufroqqa ruxsor oftob.*

84. Baytning vaznini aniqlang.

*Har kim aning zulfi bila nogoh biror savdo qilur,*

*Kuch birla o'zin ul kishi sho'ridavu shaydo qilur.*

85. Quyidagi she'riy parchaning janrini aniqlang.

*Otam bu ostonning xokbezi,*

*Onam ham bu saro bo'ston kanizi.*

*Manga, gar xud bo'lay bulbul, vagar zog',*

*Kim ushbu dargah o'lg'ay gulshanu bog'.*

*Vale umre bu gulshandin havodis*

*Qilib jonimga hijron ranji hodis.*

86. Tasdis musammatlar uchun qaysi janr asos bo'ladi?

87. Muammo va lug'z janrlari orasida qanday farq bor?

88. Baytda qo'llanilgan vazn va she'riy san'atlarni aniqlang.

*Setor demang, holi dilim so'rg'uvchi tanbur,*

*Ko'nglum girehin g'amlarini surg'uchi tanbur*

89. Baytning vaznini aniqlang.

*Donayi xoli uzra ko'r sabzayi xat nishonasi,*

*Donayi xol emas, erur mehr giyoh donasi.*

90. Ilmi badi' haqida risolalar yozgan zamonaviy olimlar haqida ma'lumot bering.

91. Quyidagi she'riy parchaning janrini aniqlang.

*Tuxm erga kirib chechak bo'ldi,*

*Qurt jondin kechib ipak bo'ldi.*

*Lola tuxmicha g'ayrating yo'qmu?!*

*Pilla qurticha himmating yo'qmu?!*

92. Tarkibband va tarji'band janrlarining o'xshash va farqli jihatlariga to'xtaling.

93. Baytda qo'llanilgan vazn va she'riy san'atlarni aniqlang.

*Visoling orzusi shiddati hijronni yiqmoqda,*

*Bu ikki pahlavon maydoni dil uzra kuroshibdur.*

94. Baytning vaznini aniqlang.

*Nachukki dard qirog'i ayog'ing ostida dol,*

*Uzor nuqtasi yanglig' uzor ustida xol.*

95. Quyidagi she'riy parchaning janrini aniqlang.

*Zuhdu toat shahdini ahli zamon ko'rmas laziz,*

*Har ne nofi'dur, marizi notavon ko'rmas laziz.*

*Zulmat ahli g'aflat istarlarki, olam komini*

*Uyqucha shabgir qilg'on karvon ko'rmas laziz.*

96. Tajnis va uning turlari haqida ma'lumot bering.

97. G'azali mulamma' haqida ma'lumot bering.



98. Baytda qo‘llanilgan vazn va she‘riy san‘atlarni aniqlang.  
*Nafsim aytur yuklab yukin: “Ul ishni qil, bu ishni qil!”*  
*Aksin aylab so‘zini, hech qilmag‘il parvoy anga.*
99. Baytning vaznini aniqlang.  
*Necha kundurki xabar topmamisham siymbarimdin,*  
*Ne asardur xabarimdin, ne xabardur asarimdin.*
100. Quyidagi she‘riy parchaning janrini aniqlang.  
*Yop ul yuz oyinasin cheksam ohi dardolud,*  
*Bu vajhdinki, qilur mayl xo‘blar sori dud.*  
*Jahonki, ohim ila tiyradur, emas mumkin*  
*Bu shom daf‘i yuzung subhi bo‘lmayin mavjud.*
101. O‘zbek mumtoz adabiyotidagi qaysi janrlarning paydo bo‘lishi bevosita Rabg‘uziy asari bilan bog‘liq?
102. G‘azali mulamma‘ bilan mulamma‘ san‘ati asosida yozilgan g‘azalning qanday farqi bor?
103. Baytda qo‘llanilgan vazn va she‘riy san‘atlarni aniqlang.  
*Ey orazi nasrin, sochi sunbul, qadi shamshod,*  
*Bulbul kibi hajringda ishim nolavu faryod.*
104. Baytning vaznini aniqlang.  
*Soqiyo, tut qadahi shohona,*  
*Qatrasi la‘l, vale yakdona.*
105. O‘zbek mumtoz adabiyotida mutassa‘ janri mavjudmi?
106. Muammo va lug‘z orasidagi farqlarni ko‘rsating.
107. Baytda qo‘llanilgan vazn va she‘riy san‘atlarni aniqlang.  
*Miskin Huvaydo, sen oni nogoh ko‘tarsa boshini,*  
*Taqvi tayog‘i birla chop, hargiz dedurma voy ango.*

#### **Materiallar va adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – Toshkent: TA‘LIM-MEDIA, 2019.
2. Yusupova D. Aruz alifbosi. – Toshkent: Akadernashr, 2015.
3. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: O‘zbekiston, 2014.
4. Алишер Навоий: комусий луғат. 1-2-жилдлар. Масъул муҳаррир Ш.Сирождидинов. – Тошкент: Sharq, 2016.
5. Болтабоев Ҳ. Шарқ мумтоз поэтикаси. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008.
6. Носиров О., Жамолов С., Зиёвиддинов М. Ўзбек классик шеърини жанрлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979.
7. Орзибеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусамман. – Тошкент: Фан, 1976.
8. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Тошкент: Шарқ, 1999.
9. Hojiahmedov A. Aruz nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akadernashr, 2018.

#### **Qo‘shimcha adabiyotlar**

10. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983.
11. Орзибеков Р. Лирикада кичик жанрлар. – Тошкент: F.Ғулом, 1976.
12. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. Т.: Адабиёт ва санъат, 1979.
13. Ҳожиаҳмедов А. Навоий арузи нафосати. – Т.: Фан, 2006
14. Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Тошкент: Шарқ, 1998.
15. Ҳожиаҳмедов А. Мактабда аруз вазнини ўрганиш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
16. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akadernashr, 2013. – 406 б.

#### **Axborot manbalari:**

1. [www.academia.edu](http://www.academia.edu)

2. [www.alishernavoiy.uz](http://www.alishernavoiy.uz)
3. [www.e-adabiyot.uz](http://www.e-adabiyot.uz)
4. [www.kutubxona.uz](http://www.kutubxona.uz)
5. [www.literarytheory.narod.ru](http://www.literarytheory.narod.ru)
6. [www.literature.uz](http://www.literature.uz)
7. [www.natlib.uz](http://www.natlib.uz)
8. [www.online.navoiy-uni.uz](http://www.online.navoiy-uni.uz)
9. [www.researchgate.net](http://www.researchgate.net)
10. [www.scholar.google.com](http://www.scholar.google.com)
11. [www.scopus.com](http://www.scopus.com)
12. [www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org)
13. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

**O'qituvchining kontakt ma'lumotlari**

Dilnavoz Yusupova

[dilnavoz@navoiy-uni.uz](mailto:dilnavoz@navoiy-uni.uz). +998977066725

**O'qituvchi bilan haftalik konsultatsiya vaqti**

Dushanba, chorshanba kunlari kunning ikkinchi yarmida